O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 168
2025 yil “25” avgust

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat pedagogika
instituti rektori
_____ Sh.Sh.Negmatova
2025 yil “ ” _____

XALQ HUNARMANDCHILIGI VA BADIIY LOYIHALASH FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	**100000 – Ta’lim**
Ta’lim sohasi:	**110000 – Ta’lim**
Ta’lim yo‘nalishi:	**60111300 – Texnologik ta’lim yo‘nalishi**

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi	O‘quv yili	Semestr	Kreditlar
XHBL1304	2025-2026	3	4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	**Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash**	60 (20/40)	60	120

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga hunarmandchilik sohalari tizimi, xalq hunarmandchiligining rivojlanish tarixi, xalq hunarmandchiligining maqsad va vazifalari, respublikamizda xalq hunarmandchiligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, naqqoshlik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik, zardo‘zlik, kulolchilik, kandakorlik, to‘quvchilik kabi ayrim hunar turlari bo‘yicha chuqur ilmiy asoslangan nazariy bilim berish hamda kashtachilik, quroqchilik, zardo‘zlik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, to‘quvchilik, kulolchilik, applikatsiya uslubida badiiy buyum yasash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, tahlil qilishga o‘rgatish, tahliliy-tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga hunarmandchilik sohalari tizimi, xalq hunarmandchiligining rivojlanish tarixi, xalq hunarmandchiligining maqsad va vazifalari, tadqiqot usullari, naqqoshlik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik, zardo‘zlik, kulolchilik, kandakorlik, to‘quvchilik kabi ayrim hunar turlari bo‘yicha chuqur ilmiy asoslangan nazariy bilim berish hamda quroqchilik, zardo‘zlik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, to‘quvchilik, kulolchilik, applikatsiya uslubida badiiy buyum tayyorlash haqida ilmiy bilimlar berish, ko‘nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat.

II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL. Fanning maqsad va vazifalari. Xalq hunarmandchiligining rivojlanish tarixi.

Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanining maqsad va vazifalari. Hunarmandchilik turlarining paydo bo‘lishi va shakllanish jarayonlari.

O‘zbek milliy xalq hunarmandchiligi turlari.

O‘zbek milliy xalq hunarmandchiligi turlari. Xalq hunarmandchiligining rivojlanish bosqichlari. Xalq hunarmandchiligining hozirgi vaqtdagi imkoniyatlari.

Xalq hunarmandchiligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar.

Xalq hunarmandchiligi sohasida Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar. Xalq hunarmandchiligi sohasida amalga oshirilayotgan xorijiy loyihalar.

2-MODUL. Naqqoshlik san’ati.

Naqqoshlik san’ati haqida umumiy ma’lumot. Naqqoshlik san’atining paydo bo‘lish tarixi va rivojlanish bosqichlari. O‘zbek milliy naqqoshlik san’atining bugungi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari. Boshqa xalqlar naqqoshligi.

O‘zbek milliy naqqoshlik maktablari va namoyondalari.

Farg‘ona naqqoshlik maktabi va namoyondalari. Toshkent naqqoshlik maktabi va namoyondalari. Samarqand naqqoshlik maktabi va namoyondalari. Buxoro naqqoshlik maktabi va namoyondalari. Xiva naqqoshlik maktabi va namoyondalari.

Naqsh turlari va naqshlardagi ramziylik.

Islimiy naqshlar. Geometrik naqshlar. Murakkab naqshlar. Ramziy naqshlar. Ranglarning ramziy ma’nolari. Geometrik shakllaring ramziy ma’nolari. Tabiatda uchraydigan naqsh elementlarining ramziy ma’nolari.

Naqqoshlikdagi asisiy tushuncha va atamalar. Naqsh elementlari.

Uslublashtirish. Kompozitsiya. Kompanovka. Simmetriya. Assimetriya. Garmoniya. Novda elementi. Barg elementi va uning turlari. Gul elementi va uning turlari. Bodom, anor, qalampir elementlari. Tanob, shukufta, bofta, marg‘ula elementlari.

O‘zbek milliy naqsh kompozitsiyalari. Kompozitsiya tuzish.

Ruta, munabbat, turunj, namoyon naqsh kompozitsiyalari. Islimiy naqsh kompozitsiyalarini tuzish. Girih naqsh kompozitsiyalarini tuzish.

3-MODUL. Kashtachilik san’ati.

Kashtachilik san’ati haqida umumiy ma’lumot. Kashtachilik san’ati tarixi va rivojlanish bosqichlari. O‘zbek milliy kashtachilik san’atining bugungi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari. Boshqa xalqlar kashtachiligi.

O‘zbek milliy kashtachilik maktablari.

Farg‘ona kashtachilik maktabi va uslublari. Toshkent kashtachilik maktabi va uslublari. Samarqand kashtachilik maktabi va uslublari. Buxoro kashtachilik maktabi va uslublari. Nurota kashtachilik maktabi va uslublari.

Kashtachilikda ishlatiladigan xom ashyo va asbob-uskunalar. Kashtachilik choki turlari.

Kashtachilik uchun mo‘ljallangan mato va ip turlari. Chambarak, igna, angishvona. Bosma chok, ilma chok, yo‘rma chok, iroqisimon chok, chirmashuvchi chok, suv chok,

4-MODUL. Yog‘och o‘ymakorligi san’ati.

Yog‘och o‘ymakorligi san’ati haqida umumiy ma’lumot. Yog‘och o‘ymakorligi tarixi va rivojlanish bosqichlari. O‘zbek milliy yog‘och o‘ymakorligi san’atining bugungi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari. Boshqa xalqlar yog‘och o‘ymakorligi.

O‘zbek milliy yog‘och o‘ymakorligi maktablari va namoyondalari.

Farg‘ona yog‘och o‘ymakorlik maktabi va namoyondalari. Toshkent yog‘och o‘ymakorlik maktabi va namoyondalari. Samarqand-Buxoro yog‘och o‘ymakorlik maktabi va namoyondalari. Xiva yog‘och o‘ymakorlik maktabi va namoyondalari.

Yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan xom ashyo va asbob-uskunalar. Yog‘och o‘ymakorligidagi naqsh turlari.

Yog‘och turlari: archa, arg‘uvon, baqaterak, yong‘oq, zarang, zirk, mirzaterak, nok, oq va qora qayin, oq qarag‘ay, tilog‘och, tog‘ teragi, chinor, shumtol, o‘rik, qarag‘ay. Iskana turlari: to‘g‘ri iskana, novda iskana, nov iskana, zamin iskana, baliq sirtli iskana, morpech iskana, chekma iskana, kurakcha iskana. Naqsh turlari: pargori, bag‘dodi, islimiy.

5-MODUL. Ganchkorlik san’ati.

Ganch o‘ymakorligi san’ati haqida umumiy ma’lumot. Ganch o‘ymakorligi tarixi va rivojlanish bosqichlari. O‘zbek milliy ganch o‘ymakorligi san’atining bugungi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari. Boshqa xalqlar ganch o‘ymakorligi.

O'zbek milliy ganch o'ymakorligi maktablari.

Farg'ona ganchkorlik maktabi va uslublari. Toshkent ganchkorlik maktabi va uslublari. Samarqand ganchkorlik maktabi va uslublari. Buxoro ganchkorlik maktabi va uslublari. Xiva ganchkorlik maktabi va uslublari.

Ganchkorlikda ishlatiladigan xom ashyo turlari va asbob-uskunalar.

Ganchning xususiyatlari. Ganch o'ymakorligi turlari. Ganch qorish usullari. Ganchkorlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar: skalpel, iskana, shuturgardon, pux qalam, minqor, qalamtoq, morpech qalam, patak binni, qalami shukufta, lo'lakash, sharafa qalam.

Ganch o'ymakorligi turlari va ganch qorish usullari.

Ganch o'ymakorligi turlari: yirik o'yma, chuqur o'yma, yassi o'yma, qirma, zamini ko'zguli o'yma, zamini rangli o'yma, panjarasimon o'yma, zanjira, hajmli o'yma, zaminli va zaminsiz o'ymalar. Ganch qorish usullari: tez ganch, soxta ganch, do'g'ob, xovonda.

6-MODUL. Zardo'zlik san'ati.

Zardo'zlik san'ati haqida umumiy ma'lumot. Zardo'zlik san'ati tarixi va rivojlanish bosqichlari. O'zbek milliy zardo'zlik san'atining bugungi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari. Boshqa xalqlar zardo'zligi.

Zardo'zlikda ishlatiladigan xom ashyolar va asbob-uskunalar.

Zardo'zlikda ishlatiladigan xom ashyolar: duxoba, velyur, bo'z, surp, sim, likkak, vag'ar, olmos qubba, zarhal no'xa, pulakcha, shaba. Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar: korcho'p, patila, shuturgardon qaychi, o'rdakburun qaychi.

Zardo'zlik choki va buyumi turlari.

Tikish choklari: guldo'zi, zamindo'zi, bershimdo'zi, pulakchado'zi. Bezak choklari: qobuli, tangalak, kunguri sedona, iskandarpechon. Zardo'zlik buyumi turlari: chakmon, kamzul, chalvor, poyabzal, belbog', salla, kuloh, jul, so'zana.

7-MODUL. Kulolchilik san'ati.

Kulolchilik san'ati haqida umumiy ma'lumot. Kulolchilik san'ati tarixi va rivojlanish bosqichlari. O'zbek milliy kulolchilik san'atining bugungi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari. Boshqa xalqlar kulolchiligi.

O'zbekistondagi kulolchilik san'ati maktablari va namoyondalari.

Farg'ona kulolchilik maktabi va namoyondalari. Toshkent kulolchilik maktabi va namoyondalari. Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi va namoyondalari. Xiva kulolchilik maktabi va namoyondalari.

Kulolchilikda ishlatiladigan xom ashyo va asbob-uskunalar.

Kulolchilikda ishlatiladigan xom ashyolar: shamod, gilvata, loyi guldon, chinni loy, koshin loy, kosagar loy, ko'zagar loy. Kulolchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar: charx, xumbuz.

Kulolchilikda rang va sir tayyorlash texnologiyasi.

Oq, yashil, qora, sariq, ko'k rang tayyorlash texnologiyasi. Tabiiy ishqorli sir tayyorlash texnologiyasi. Qo'rg'oshinli sir tayyorlash texnologiyasi.

8-MODUL. Kandakorlik san'ati.

Kandakorlik san'ati haqida umumiy ma'lumot. Kandakorlik san'ati tarixi va rivojlanish bosqichlari. O'zbek milliy kandakorlik san'atining bugungi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari. Boshqa xalqlar kandakorligi.

O'zbekistondagi kandakorlik san'ati maktablari.

Qarshi kandakorlik maktabi va uslublari. Toshkent kandakorlik maktabi va uslublari. Samarqand kandakorlik maktabi va uslublari. Buxoro kandakorlik maktabi va uslublari. Xiva kandakorlik maktabi va uslublari.

Kandakorlikda ishlatiladigan xom ashyo turlari va asbob-uskunalar.

Kandakorlikda ishlatiladigan xom ashyolar: mis, melxior, kumush. Kandakorlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar: dastgoh (kanifolli qolip), bolg'acha, po'lat qalamlar: ko'zyorar qalam, parma qalam, chekuv qalam, qandal, temir pargor.

Kandakorlik buyumi turlari. Kandakorlik texnikasi va naqsh turlari.

Kandakorlik buyumi turlari: dulava, koshig'liq, paymona, oftoba, shamdon, choydish, qumg'on. Kandakorlik texnikasi turlari: shabaka, qolipaki, simkori. Kandakorlikdagi naqsh turlari: mehrob, sitora, gardish, ishkalak, chashni bulbul, qo'chqorak, pushti baliq, kirmak, ilon izi.

9-MODUL. Gilamchilik san'ati.

Gilamchilik san'ati haqida umumiy ma'lumot. Gilamchilik san'ati tarixi va rivojlanish bosqichlari. O'zbekistonda gilamchilik san'atining bugungi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari. Boshqa xalqlar gilamchilik sana'ti.

Gilam turlari.

Qo'lda to'qish: savat to'qish, bo'yra to'qish, makrame to'qish. Asboblar yordamida to'qish: gilam to'qish, ilmoqda to'qish, piltakashda to'qish.

Gilamchilikda ishlatiladigan xom ashyo turlari va asbob-uskunalar.

Gilamchilikda ishlatiladigan ip turlari: ipak, paxta, jun, sun'iy va sintetik iplar. Gilamchilik asboblari turlari: dastgoh, ilmoq, taroq haqida umumiy ma'lumotlar va ularning turlari.

Gilamchilik texnikasi.

Dastgohga ip tortish texnikasi. Taqir qilam to'qish texnikasi. Tukli gilam to'qishda tugun tugish usullari. Simmetrik va asimmetrik tugunlar.

10-MODUL. Zargarlik san'ati.

Zargarlik san'ati haqida umumiy ma'lumot. Zargarlik san'ati tarixi va rivojlanish bosqichlari. O'zbek milliy zargarlik san'atining bugungi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari. Boshqa xalqlar zargarlik san'ati.

Zargarlikda ishlatiladigan xom ashyo turlari.

Zargarlikda ishlatiladigan metallar: oltin va uning qotishmalari, kumush va uning qotishmasi, platina va uning qotishmalari. Zargarlikda ishlatiladigan qimmatbaho toshlar: olmos, yoqut, zumrad, sapfir, aleksandrit. Zargarlikda ishlatiladigan yarim qimmatbaho toshlar: topaz, ametist, giatsint, korund, akvamarin, feruza, sitrin, opal. Zargarlikda ishlatiladigan qimmatbaho bo'lmagan toshlar: lazurit, malaxit, agat, yashma, nefrit.

Zargarlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar.

Rejalash jarayonida ishlatiladigan asboblar. Xomaki metall mahsulotlardan plastinkalar va uzun simlar tayyorlash jarayonida ishlatiladigan asboblar. Bukish va to'g'irlash jarayonida ishlatiladigan asboblar. Qirqish va egovlash jarayonida ishlatiladigan asboblar. Eritish, quyish hamda kavsharlash jarayonlarida ishlatiladigan asboblar. Pardozlash va sayqallash jarayonlarida ishlatiladigan asboblar Ko'zlar va toshlarni bostirish, mahkamlash jarayonida ishlatiladigan asboblar.

Zargarlik texnologiyasi.

Zargarlikda rejalash jarayoni. Metallar bilan ishlash: Termik ishlov berish. Oksidlanishdan saqlash. Toblash. Bukish va tekislash. Filigran ishlar.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kompyuter grafikasida naqsh chizish texnologiyasi. Rang va yorug'lik. Axromatik, xromatik va monoxromatik ranglar. RGB, CMYK, HSV rang modellari.
2. Kompyuter grafikasida oddiy naqsh elementlarini chizish. Vektor grafikasi.
3. Kompyuter grafikasida murakkab naqsh elementlarini chizish. Fraktal grafiklar.
4. Kompyuter grafikasida naqsh kompozitsiyalarinir chizish. Photoshop/Illustrator da naqsh kompozitsiyalarini vektor formatda yaratish.
5. Qo'lda kashta tikish texnologiyasi.
6. Kashta uchun gazlama va ip tanlash. RGB, CMYK, HSV rang modellaridan foydalanish.
7. Kashta kompozitsiyasini CMYK rang modeli asosida tanlash.
8. Buyumga kashta naqshini tushirish.
9. Kashta tikish asboblari: igna, chambarak, bigizlardan foydalanish.
10. Buyumni kashta bilan bezash usullari.
11. Kashtachilik choklaridan namunalar tikish.
12. Ilmoqli bigiz bilan kashta tikish.
13. Lentali kashta tikish.
14. Mashinada kashta tikish.
15. Kashta tikish mashinasini ishga tayyorlash.
16. Mashina kashtachiligi uchun kompozitsiya tanlash.
17. Quroq tikish texnologiyasi.
18. Quroq uchun kompozitsiya tanlash. Kompozisiyani Photoshopda kollaj tarzida yaratish.
19. Yassi quroqdan namunalar tikish.
20. Hajmli quroqdan namunalar tikish.
21. Yog'och o'ymakorligi texnologiyasi.
22. Yog'och o'ymakorligi uchun xom ashyo tayyorlash.
23. Yog'och buyumga kompozitsiya tushirish.
24. Yog'ochni o'yish bosqichlari.
25. Yog'och o'ymakorligida pardozlash ishlari.
26. Zardo'zlik texnologiyasi.
27. Kartonga naqsh tushirish va qirqish.
28. Zar ipni o'rash, bo'zni korcho'pga tortish.
29. Zardo'zlik choklaridan (zardo'zi-guldo'zi, zardo'zi-zamindo'zi, zardo'zi-pulakchado'zi) namunalar tikish.
30. Kulolchilik texnologiyasi.
31. Kulolchilik uchun xom ashyo tayyorlash.
32. Kulolchilik buyumini tayyorlash va badiiy bezash.

33. Applikatsiya texnikasi.
34. Applikatsiya uchun kompozitsiya tanlash. Kompozisiyani Photoshopda kollaj tarzida yaratish.
35. Applikatsiya tikish.
36. Gilamchilik texnologiyasi.
37. Gilam to'qish uchun xom ashyo va nusxa tanlash.
38. Dastgohga ip tortish.
39. Tugun tugish usullari.
40. Gilamni pardozlash.

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, hunarmandchilik buyumlarini tayyorlash, ularni badiiy bezashning usul va uslublari bilan tanishish va amalda qo'llash ishlari bajariladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- yozma savol tayyorlash;
- Taqdimot tayyorlash;
- Referat tayyorlash;
- rasmli topshiriq tuzish;
- Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash;
- Buyum tayyorlash;
- Videorolik tayyorlash;
- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;
- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;
- Krossvord tuzish;
- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish;
- Ha, yo'q javobli test tuzish;
- Audio dars tayyorlash;
- Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish;
- Adabiyotlar ro'yxatini tuzish;

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Xalq hunarmandchiligi san'ati sohasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar va qabul qilingan hukumat qarorlari.
2. O'zbek milliy naqqoshlik texnologiyasini takomillashtirish.
3. O'zbek milliy kashtachilik texnologiyasini takomillashtirish.
4. O'zbek milliy yog'och o'ymakorligi texnologiyasini takomillashtirish.
O'zbek milliy ganchkorlik texnologiyasini takomillashtirish.
5. O'zbek milliy zardo'zlik texnologiyasini takomillashtirish.
6. O'zbek milliy kulolchilik texnologiyasini takomillashtirish.
7. O'zbek milliy quroqchilik texnologiyasini takomillashtirish.
8. O'zbek milliy kandakorlik san'ati.
9. O'zbek milliy gilamchilik texnologiyasini takomillashtirish.
10. O'zbek milliy zargarlik texnologiyasini takomillashtirish.
11. O'zbek milliy do'ppichilik san'ati.
12. O'zbek milliy pichoqchilik san'ati.
13. O'zbek milliy me'morchilik san'ati.

3.	**V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Talaba bilish kerak:** • xalq hunarmandchiligi haqida umumiy tushunchalar; milliy hunarmandchilik asoslari, turlari va tarixi; turli millatlar xalq hunarmandchiligi turlari, hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash uslublari to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi (bilim);*** • fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, hunarmandchilik sohalari va uslublari to'g'risidagi asosiy tushunchalar, xalq hunarmandchiligining rivojlanish tarixi va xususiyatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma);*** • xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlanmasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, disskusiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi va talabalarni baholay olish to'g'risida malakalariga ega bo'lishi kabi ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • *ma'ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara* • *interfaol keys-stadilar;* • *diologik yondoshuv* • *SWOT tahlili* • *Wenn diagrammasi* • *Bliz so'rov* • *nilufar guli* • *baliq skleti* • *kim chaqqon* • *blis so'rov* • *blis test va boshqalar*
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.
6.	**VIII. Asosiy adabiyotlar** 1. Mamasoliyeva Sh.L. Xalq hunarmandchiligi. SamDU nashriyoti 2022 yil. 2. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007. 3. G'ulomov K. Amaliy san'at. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007. 4. Дегтярев, В.М. Компьютерная геометрия и графика: учеб. для студентов вузов [Текст] / В. М. Дегтярев – М.: Академия, 2013. – 191 с. **IX. Qo'shimcha adabiyotlar** 5. Bulatov S.S. Amaliy bezak san'ati. – T.: "O'qituvchi", 1991 y. 6. Qo'ziyeva Z.E. Xalq amaliy san'ati. Metodik qo'llanma. NVPQQTMOI, Navoiy, 2012. 7. Shoyoqubov Sh. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Bezakli albom. "O'zbekiston" NMIU – 2009. 8. Jabborova D. Zardo'zlik texnologiyasini o'qitish uslubiyoti. Kasb-hunar kollejlari uchun

	o'quv qo'llanma. – T.: "Bilim", 2005. 9. Samieva Sh.X. Kashta tikish texnologiyasi va ishlab chiqarish jihozlari. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: "Niso poligraf", 2017. 10. Samieva Sh.X. va b. Kashtachilik va badiiy did. KHK uchun uslubiy qo'llanma. Buxoro: "Iste'dod", 2014. 11. Abdullaeva N. Milliy kashta tikish usullari va kashta buyumlar tayyorlash jarayonlari. T.: "Yangi nashr", 2015. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni** 12. O'zbekiston Ryespublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda). 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-son farmoni. **Axborot manbalari** 14. www.ziyonet.uz 15. www.edu.uz 16. www.e-tarix.uz 17. www.kitob.uz 18. www.hunar.uz www.handicraft.uz
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2025 yil "___" _____ ____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:** Sh.L. Mamasoliyeva – Samarqand davlat pedagogika instituti Texnologik ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** R.X. Jiyanqulova – Samarqand davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va texnologik ta'lim kafedrasi dotsenti (ichki). S.S. Igamov – Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti dotsenti (tashqi).

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings) 93 o'rinni va (Academic Ranking of World Universities) 115 o'rinni reytingida egallagan **Lomonosov nomidagi Moskva universitetning Boshqarish va innovatsiyalar oliy maktabi (fakultet) innovatsiya yo'nalishi ("Kompyuter grafikasi") dasturi** tahlil qilinib, ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi.

"Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash" fanining dasturi tayyorlanib **8 ta mavzusi** yangilandi va moslashtirildi

https://hsmi.msu.ru/sites/hsmi.msu.ru/files/program_common_files/kompyuternaya_grafika.pdf

Fan dastur Aniq va amaliy fanlar fakultetning 2025-yil 28-fevraldagi 10-f sonli farmoyish bilan tuzulgan ishchi guruh tomonidan ma'qullangan.

Tuzuvchi: **Sh.L. Mamasoliyeva**